MPFC_N-25U guruh magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar ustidan moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Tadqiqotda budjetdan tashqari mablag'larning shakllanish manbalari, ularni xarajatlar smetasi asosida rejalashtirish hamda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, ta'lim va tibbiyot muassasalarida shakllanadigan budjetdan tashqari tushumlar — to'lov-kontrakt mablag'lari, maxsus to'lovlar, rivojlantirish jamg'armalari hamda homiylik mablag'lari ustidan nazoratni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Maqolada moliyaviy nazorat jarayonida g'aznachilik ijrosi tizimi, buxgalteriya hisobi registrlari, sintetik va analitik hisob ma'lumotlarining o'zaro mosligi hamda ularning ishonchligini ta'minlash masalalari ilmiy asosda izohlangan. Shuningdek, budjet intizomini mustahkamlash, mablag'lardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda nazorat mexanizmlarining ahamiyati asosli ilmiy xulosalar orqali yoritilgan. Tadqiqot natijalari budjet tashkilotlarida moliyaviy shaffoflikni oshirish, moliyaviy risklarni minimallashtirish va boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: budjetdan tashqari mablag'lar, moliyaviy nazorat, budjet tashkilotlari, rivojlantirish jamg'armasi, g'aznachilik ijrosi, xarajatlar smetasi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy intizom, shaffoflik.

Abstract. This article comprehensively examines the theoretical and practical aspects of organizing financial control over extra-budgetary funds in budgetary organizations. The study analyzes the sources of formation of extra-budgetary funds, mechanisms for planning them based on expenditure estimates, and instruments for ensuring their targeted and efficient use. Particular attention is paid to the specific features of controlling revenues generated in educational and healthcare institutions, including tuition-contract payments, special fees, development funds, and sponsorship contributions.

The importance of treasury execution systems, accounting registers, and the consistency between synthetic and analytical accounting data in the financial control process is substantiated. The research findings contribute to strengthening budgetary discipline, enhancing financial transparency, and minimizing financial risks in budgetary organizations.

Key words: extra-budgetary funds, financial control, budgetary organizations, development fund, treasury execution, expenditure estimate, accounting, financial discipline, transparency.



Аннотация. В статье на основе комплексного подхода раскрываются теоретические и практические аспекты организации финансового контроля за внебюджетными средствами в бюджетных организациях. В исследовании проанализированы источники формирования внебюджетных средств, механизмы их планирования на основе смет расходов, а также инструменты обеспечения их целевого и эффективного использования. Особое внимание уделено специфике контроля за поступлениями, формируемыми в образовательных и медицинских учреждениях, включая средства оплаты по контракту, специальные платежи, фонды развития и спонсорские средства. Обоснована значимость системы казначейского исполнения, регистров бухгалтерского учета, а также согласованности данных синтетического и аналитического учета в процессе финансового контроля. Результаты исследования направлены на повышение финансовой прозрачности, укрепление бюджетной дисциплины и снижение финансовых рисков в деятельности бюджетных организаций.

Ключевые слова: внебюджетные средства, финансовый контроль, бюджетные организации, фонд развития, казначейское исполнение, смета расходов, бухгалтерский учет, финансовая дисциплина, прозрачность.

KIRISH

Hozirgi sharoitda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish, budjet mablag'lari bilan bir qatorda budjetdan tashqari moliyaviy resurslardan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, budjet tashkilotlarida shakllanadigan budjetdan tashqari mablag'lar hajmining ortib borishi ularning hisobini yuritishni takomillashtirish hamda ular ustidan moliyaviy nazoratni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Mazkur mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalarda moddiy-texnik bazani mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirishda muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, budjetdan tashqari mablag'larning shakllanish manbalari va ulardan foydalanish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash, amaldagi qonunchilikda belgilangan tartib va me'yorlarga qat'iy rioya etish moliyaviy intizomning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazorat mexanizmlarini tizimli ravishda takomillashtirish mablag'lardan oqilona foydalanishni, rejalashtirish jarayonlarining mutanosibligini hamda hisob va hisobot ma'lumotlarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar ustidan nazoratni tashkil etishning amaldagi mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar ustidan nazoratni tashkil etish masalasi davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy nazorat va budjet hisobi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy ilmiy manbalarda mazkur mablag'lar davlat sektorida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Jumladan, A. Premchand o'z tadqiqotlarida budjetdan tashqari moliyaviy resurslar ustidan samarali nazorat mexanizmlarini shakllantirish moliyaviy intizomni mustahkamlashning muhim sharti ekanligini ilmiy asoslaydi [1]. R. Allen va D. Tommasi esa budjetdan tashqari mablag'larning shaffof hisobini yuritish hamda g'aznachilik ijrosi orqali nazoratni kuchaytirish davlat moliyasini boshqarish sifatini oshirishini ta'kidlaydilar [2].

MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy ishlarida budjetdan tashqari mablag'lar, ularning shakllanish manbalari hamda nazoratning tashkiliy-uslubiy asoslari atroflicha o'rganilgan. Xususan, L. P. Pavlova budjet tashkilotlarida maxsus jamg'armalar faoliyatini nazorat qilishda smeta intizomiga qat'iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi [3]. V. D. Novodvorskiy va O. V. Rudakovlarning fikricha, budjetdan tashqari mablag'lar hisobi bo'yicha sintetik va analitik hisob ma'lumotlarining o'zaro mosligi moliyaviy nazorat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham budjetdan tashqari mablag'lar ustidan nazorat masalasi keng ko'lamda tadqiq etilgan. Jumladan, B. X. To'rayev davlat moliyasini boshqarish tizimida budjetdan tashqari mablag'larning roli ortib borayotganini ta'kidlab, ularni nazorat qilish mexanizmlarini izchil takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [5]. Shuningdek, Sh. Sh. Shoalimov budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritish amaliyotini yanada takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatib, ichki va tashqi moliyaviy nazorat vositalarini o'zaro uyg'unlashtirish samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [6]. A. A. Xudoyberdiyevning tadqiqotlarida esa ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt tushumlari ustidan nazoratni kuchaytirish orqali mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash masalalari yoritilgan [7].

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi hamda Moliya vazirligining me'yoriy hujjatlarida budjetdan tashqari mablag'larni rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilishning asosiy qoidalari belgilab berilgan [8], [9]. Ilmiy adabiyotlar va amaliyot tahlili ushbu normalarni qo'llash jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois mavzuga oid adabiyotlar tahlili budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar nazoratini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'lar ustidan moliyaviy nazoratni tashkil etish jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks ravishda o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etib, unda budgetdan tashqari mablag'larning shakllanish manbalari, ularni rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish mexanizmlari o'zaro uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy hamda maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan, xususan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullaridan samarali foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, budget tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari hamda buxgalteriya hisobi registrlari tadqiqotning asosiy axborot manbalari sifatida xizmat qildi.

Olingan natijalar asosida budgetdan tashqari mablag'lar ustidan moliyaviy nazoratni yanada takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar shakllantirildi hamda amaliyotni yanada samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Nazorat keng iqtisodiy kategoriya bo'lib, u boshqaruv funksiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida maxsus kuzatish va baholash tizimini o'zida mujassam etadi. Nazoratning asosiy maqsadi mavjud ma'lumotlarni taqqoslash, yuz berayotgan o'zgarishlarni aniqlash hamda ularni xolis baholashdan iborat. Shu jihatdan nazorat boshqaruv jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Budget nazorati moliyaviy-iqtisodiy nazoratning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning yordamida davlatning budget siyosati izchil amalga oshiriladi, pul mablag'larining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish jarayoni ta'minlanadi. Budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'lar ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida mazkur mablag'larning shakllanish manbalari, ularning rejalashtirilishi hamda maqsadli sarflanishi kompleks tarzda o'rganiladi.

Budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiq smetalar tuzadilar. Mazkur smetalarda budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi, tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi, ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa budgetdan tashqari mablag'lar, jumladan, vazirliklar va idoralarning budgetdan tashqari jamg'armalariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'lmagan to'lovlardan tushumlar hamda ma'muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar nazarda tutiladi.

Budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar, Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish hamda rivojlantirish jamg'armasi bundan mustasno, tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlar va tartib asosida ro'yxatdan o'tkaziladi. Budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarda tushumlar hajmi hamda ushbu mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi va asoslantiriladi (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazoratni tashkil qilishning taklif etilayotgan namunaviy sxemasi.



Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar ustidan nazoratni tashkil etishda to'lovlarining maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar alohida o'rganiladi. Mazkur mablag'lar tarkibiga ta'lim muassasalarida bolalarning ota-onalari tomonidan to'lanadigan badallar, shuningdek, xodimlarning ovqatlanishi uchun to'lovlar kiradi. Ushbu tushumlarning shakllanishi, o'z vaqtida va to'liq hisobga olinishi hamda maqsadli sarflanishi nazorat jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar ustidan nazorat ham alohida tartibda amalga oshiriladi. Bunda tushumlarning to'g'ri hisobga olinganligi va ularni taqsimlash amaldagi nizom talablariga muvofiq bajarilganligi tegishli subschyotlarni tekshirish orqali aniqlanadi. Nazorat jarayonida mablag'larning belgilangan yo'nalishlar bo'yicha maqsadli sarflanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari ustidan nazoratni amalga oshirishda, avvalo, ularning shakllanish manbalari tahlil qilinadi. Ushbu manbalar jumlasiga g'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlari bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligi hamda uning hududiy bo'linmalarida ochilgan hisobvaraqlarda hisobot choragining oxirgi ish kuni yakunida qolgan tejab qolingani mablag'lar (kapital qo'yilmalar xarajatlariga mo'ljallangan mablag'lar bundan mustasno), tashkilot faoliyat turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar, vaqtincha foydalanilmayotgan binolar va boshqa davlat mol-mulkini ijaraga berishdan olingan mablag'larning 50 foizi (qolgan 50 foizi tegishli budjet daromadiga o'tkaziladi), shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordami kiradi.

Mazkur manbalar hisobidan qo'shimcha daromad olayotgan budjet tashkilotlari davlat budjetiga undiriladigan soliqlar va yig'implarning barcha turlaridan ozod etilganligi sababli, bo'shab qolgan mablag'larning belgilangan tartibda, ya'ni moddiy-texnika bazani mustahkamlash va xodimlarni moddiy rag'batlantirishga maqsadli yo'naltirilganligi nazorat qilinadi. Jamg'arma mablag'larining sarflanishini tekshirish jarayonida ularning belgilangan ustuvor yo'nalishlarga muvofiq ishlatilganligi aniqlanadi. Xususan, mablag'lar, avvalo, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni hamda mavjud kreditorlik qarzlarni qoplashga, so'ngra budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga 75 foiz miqdorda (tibbiyot muassasalarida 50 foiz), ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga esa 25 foiz miqdorda (tibbiyot muassasalarida 50 foiz) yo'naltirilishi belgilangan tartib asosida o'rganiladi.

Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi nazoratining asosiy vazifalari tekshirish dasturida o'z aksini topadi. Nazorat jarayonida budjetdan tashqari mablag'lardan, shu jumladan, Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilganligi, budjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha xarajatlar guruhlar va moddalari kesimida tasdiqlangan limitlarga rioya etilganligi, shtat-smeta intizomiga amal qilinganligi hamda mablag'lar bilan ta'minlashning belgilangan navbati, to'lov muddatlari va to'liqligiga rioya etilganligi kompleks ravishda tekshiriladi.

Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar hisobi budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar guruhlar va ularni moliyalashtirish ketma-ketligiga muvofiq yuritilganligi sababli, tekshiruv ham xarajatlar guruhlar va moddalari kesimida olib boriladi. Tekshiruv jarayonida budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlarning hisoblanishi va to'lanishi 294-son shakldagi "Kassa va haqiqiy xarajatlar" daftari asosida yuritilganligiga e'tibor qaratiladi. Mazkur daftarda aks ettirilgan kassa va haqiqiy xarajatlar ko'rsatkichlari buxgalteriya schyotlari ma'lumotlari bilan taqqoslanib, sintetik va analitik hisobning o'zaro mosligi aniqlanadi.

Budjet tashkilotlari yuqorida qayd etilgan manbalar bo'yicha alohida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda budjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritadilar. Tekshiruv davomida har bir manba bo'yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar tahlil qilinadi hamda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan taqdim etilgan ko'chirmalar bilan solishtiriladi. Bunda avvalgi ko'chirmaning oxiridagi qoldiq keyingi ko'chirmaning boshlang'ich qoldig'iga mos kelishi zarur. Ushbu ko'chirmalar asosida uchinchi memorial orderda budjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha 381-son shakldagi jamlanma qaydnoma rasmiylashtiriladi va tegishli yozuvlar 308-son shakldagi Bosh jurnal kitobiga kiritiladi. Keyinchalik ushbu ma'lumotlar asosida moliyaviy hisobot shakllari tuziladi hamda birlamchi hujjatlar, registrlar va hisobot ko'rsatkichlari o'zaro solishtirish yo'li bilan tekshiruvdan o'tkaziladi.

Boshqa budjetdan tashqari mablag'lar tarkibiga tashkilotlarning eskirgan va foydalanishga yaroqsiz moddiy qiymatliklarini realizatsiya qilishdan, turli jamg'armalar va penyalardan, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa tushumlardan olingan mablag'lar kiradi. Nazorat jarayonida eskirgan va keraksiz moddiy qiymatliklarni aniqlash va hisobdan chiqarish tartibiga rioya etilganligi, maxsus tashkil etilgan komissiyalarning xulosalari asoslanganligi hamda tuzilgan dalolatnomalarning ishonchiligi puxta o'rganiladi. Bu jarayon mablag'larning shaffof va maqsadli shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar ustidan nazoratni tashkil etish davlat moliyasini boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Budjetdan tashqari



mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda moddiy-texnika bazani mustahkamlash hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirishda muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ularning shakllanishi va sarflanishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Xususan, normativ-huquqiy talablarning to'liq va izchil qo'llanilishi, smeta intizomiga qat'iy rioya etilishi hamda buxgalteriya hisobi registrlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash nazorat samaradorligini oshirishning muhim omillari ekanligi asoslab berildi. Shuningdek, nazorat mexanizmlarini tizimlashtirish va ularni zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida rivojlantirish mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni yanada mustahkamlashi ilmiy jihatdan dalillandi.

G'aznachilik ijrosi tizimini izchil qo'llash, sintetik va analitik hisob ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash, moliyaviy hisobotlar ustidan muntazam monitoring olib borish budjetdan tashqari mablag'lar nazoratining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta tuzish va tasdiqlash jarayonlarini yagona uslubiy yondashuv asosida takomillashtirish, g'aznachilik tizimi orqali mablag'lar harakati ustidan real vaqt rejimida nazorat mexanizmlarini kengaytirish, ichki moliyaviy nazorat va audit tizimini kuchaytirish orqali mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, buxgalteriya xodimlarining kasbiy malakasini oshirish hamda raqamli hisob tizimlarini joriy etish orqali hisob va hisobot ma'lumotlarining ishonchlilikini yuksaltirish zarurligi asoslab berildi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi budjet tashkilotlarida moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda davlat moliyaviy resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Premchand, A. Public Financial Management. Washington, DC: International Monetary Fund, 1999.
2. Allen, Richard, and Daniel Tommasi. Managing Public Expenditure: A Reference Book for Transition Countries. Paris: OECD, 2001.
3. Павлова, Л. П. Бюджетная система и бюджетный процесс. Москва: Финансы и статистика, 2010.
4. Новодворский, В. Д., and О. В. Рудаков. Бухгалтерский учет в бюджетных учреждениях. Москва: Инфра-М, 2012.
5. To'rayev, B. X. Davlat moliyasini boshqarish. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
6. Shoalimov, Sh. Sh. Budjet hisobi va hisobotini takomillashtirish masalalari. Toshkent: Moliya, 2019.
7. Xudoyberdiyev, A. A. "Ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt mablag'lari hisobi va nazorati." Moliya va bank ishi jurnali, no. 3 (2020): 45–52.
8. O'zbekiston Respublikasi. Budjet kodeksi. Toshkent: Adliya vazirligi, 2013. <https://lex.uz/docs/-2304138>.
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha yo'riqnoma. Toshkent, 2020.
10. Hakimov, B. J., Alimov, B. B., Xolmirzayev, U. A., and Polatov, A. X. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2013.
11. Abdulazizovich, X. U. B., and Muhabbat, N. "Increasing Competitiveness in the Commodity Market in Industrial Enterprises." *Obrazovanie, Nauka i Innovatsionnye Idei v Mire*, 42(1) (2024): 197–206.
12. Холмирзаев, У. А. "Дебитор қарзларини айланиши таҳлилин тақомиллаштириш масалалари." 2023.
13. Холмирзаев, У. А., and Самижонов, Ш. С. "Совершенствование отражения денег в бухгалтерском балансе." *Экономика и социум*, 5-2 (92) (2022): 755–766.
14. Холмирзаев, У. А., and Камолдинов, О. О. "Аспекты совершенствования представления информации о дебиторской задолженности по оборотным средствам в бухгалтерском балансе." *Экономика и социум*, 5-2 (92) (2022): 767–779.
15. Abdulazizovich, X. U. B. "Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishining ustuvor yo'nalishlari." *Journal of New Century Innovations*, 74(2) (2025): 65–70.
16. Xolmirzayev, U. B. "Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar." *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 1(10) (2023).
17. Isomukhamedov, A., Xolmirzayev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., and Nadirov, U. "Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms." *Reliability: Theory & Applications*, 20 (SI 10 (88)) (2025): 365–371.
18. Xolmirzayev, U. B., and Ubaydullayev, T. "O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik sohasida me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish." *Green Economy and Development*, 3(10).
19. Batirova, R., and Xolmirzayev, U. B. "Ulgurji savdo qoidalari va chakana savdodan farqli tomonlari." *Green Economy and Development*, 3(9).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
